# MUSIQA DARSLARIDA INNOVATSION YONDASHUV-MASHG'ULOTLARDA MULTIMEDIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH

**Navbahor Xamraqulovna Xasanova**
*JDPU.Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Musiqiy ta'lim kafedrasi dotsenti.*
*Tel. raqam.+99891-594-36-13.*
*Elektron pochta.navbahor66@umail.uz*
**Abdurazzoqova Mehribon Jaloliddin qizi**
*JDPU.Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada musiqa mashg'ulotlari tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, ko'rgazmali, ko'rsatmali,multimediya vosital;aridan texnika vositalari yordamida o'tkazilgandagina yaxshi natijalarga erishish mumkinligi va uning ishi rejali, tizimli yo'lga qo'yilishi oddiydan-murakkablikka tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilishi lozimligi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Terxnoligiya, innovatsiya, interfaol metodlar, multimediya, axborot, musiqa ta'limi, musiqa notallarini yozish, dastur.*

Umumta'lim maktablarining quyi sinflarida musiqa darsini tashkil etish jarayoniga yangi o'zgarishlar kiritishni zamonning o'zi talab etmoqda. Ayniqsa, maktabda musiqa madaniyati darsini tashkil etishda innovatsion yondashuvni joriy etish muammosining mavjudligi bir qator vazifalarni aniqlash imkonini beradi.

Musiqiy ta'lim har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Badiiy tasvir, ijodkorlik va ilhom baxsh etgan musiqa o'ziga xos tushunchadir. U bolalarda noan'anaviy fikrlash, ijodkorlik hissi va dunyoni aks ettirish qobiliyati, mustaqil hayotiy pozitsiyani shakllantiradi [1].

Musiqa darslarida innovatsion dasturni qo'llash uchun bir qancha omillarni asos qilib olish mumkin. Bu, asosan, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayonida asosiy fikrlarni aniqlash imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash bugungi kunda ko'p mezonlarga muvofiq yangilanishi zarur.

O'qituvchi o'zi berayotgan yangi ma'lumotga o'quvchilardan qo'shimcha ma'lumot ham talab etishi kerak. Chunki bugungi davr o'quvchilari uzluksiz internet tarmog'i orqali ko'plab yangiliklardan xabardor bo'lib turadi.

Biz hayotimizni musiqasiz tasavvur etaolmaymiz.

Uyda, maktabda, ko'cha-ko'yda turli musiqalarni eshitamiz. Ammo beixtiyor o'z istaklarimizga ko'ra ularni tanlaymiz. Masalan, bolalarni klassika bilan tanishtirish, ularda bu janrga muhabbat uyg'otish va konsert zallarida tinglash mumkin bo'lgan musiqa ekanligini tushuntirish mumkin. Bunda klassik, pop, rok janrlarining tarkibiy qismini aks ettiradigan asarlarni tanlashimiz samara beradi.

Ushbu uslublar yordamida bolalar o‘zlarining ruhiga yaqin ritmlar orqali mumtoz musiqa bilan tanishadi. Qo‘shiqni o‘rganish va uni ijro etish jarayonida innovatsion yondashish ham mumkin.

Bugungi kunda bolalar o‘zini haqiqiy san’atkor kabi his etish imkoniyati mavjud. Ular dars davomida fonogramma(minus) asosida qo‘shiq kuylashi mumkin. Musiqa darsining ijod namunasi ekanligini tushunish va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun bunday dars texnik jihatdan jihozlangan sinfda (kompyuter, audio tizim, konsol, mikrafonlar va boshqalar) yorug‘ xonada o‘tkazilishini ta’minlash zarur [3].

Bugungi kunda musiqa darsiga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi. Endi dars yangi shakllarni izlash tamoyiliga asoslanadi. Ushbu jarayonlarni chuqur his etgan o‘qituvchi har bir darsga innovatsion tarzda yondashadi.

Multimedia (multimedia – ko‘p muhitlilik) vositalari bu texnik va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiyalarni ishlatgan holda zamonaviy texnologiya bilan muloqatda bo‘lib biror axborotni insonga odatdagidan ko‘ra ko‘proq qilish imkonini beradi.

Standart multimediya manbalaridan tashqari, maxsus musiqa manbalari ham mavjudligini ta'kidlab o'tamiz. Texnologiya vositalar hamda dasturiy ta'minotga tegishli bo'lgan musiqiy manbalar mavjud. Ushbu bo'limda biz musiqa nazariyasida ishlatilishi mumkin bo'lgan multimedia manbalarini ko'rib chiqamiz.

Musiqa fanlarini o'qitishda multimedia manbalari an'anaviy ravishda quyidagilarga bo'linadi:

- Musiqiy multimedia texnik jihozlari.
- Musiqiy dasturiy ta’minot.
- Kompyuterli va Mobil ilovalar (ma'lumotnoma, lug'at, o'yin, o'quv dastur/)

Texnologik taraqqiyot to'xtamaydi va inson mehnatini engillashtirish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan o'qitishning yangi bosqichi bevosita texnologiyalar bilan bog'liq. Texnologiyalar va musiqada innovatsiyalarning qo'llanilishi tufayli musiqiy ta'lim yanada qulay va qiziqarli asboblar bilan boyitilmoqda. Chunki taraqqiyot, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir [4].

Hozirgi vaqtda o`quv mashg`ulotlarini loyihalashtirish va ayrim fanlargagina xos texnologiyalarni qo`llashga ham e`tibor kuchaymoqda. Xuddi shunday holatni musiqa mashg`ulotlarini texnologiyalashtirish tajribasida ko`rish mumkin. Bunga misol qilib ilg`or pedagoglar tomonidan qo`llanilayotgan “Konsert darslari”, “Viktorina darslari”, “Quvnoqlar va zukkolar darsi”, “Musiqiy sayohat”, “Men dirijyor” kabi texnologiyalarni ko`rsatish mumkin.

Mashg`ulotlarni loyihalashtirish deganda nimalar ko`zda tutiladi va bunda nimalarga asoslaniladi?

Quyida mashg`ulot jarayonini loyihalashtirish asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz: Dars mavzusiga oid materiallarni to`plash (O`qituvchining mavzu bo`yicha tayyorgarligi);

Mavzuni o`rganish maqsadi va vazifalarni aniqlab olish;

Dars turi, shakli, metod va vositalarini tanlash;

Loyihada ko`zda tutilgan tushuncha, bilim, ko`nikma, malakalarni o`zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt hajmini (Masalan, musiqa darslarida har bir faoliyatga ajratiladigan vaqt me`yorini rejalashtirish) hisobga olish;

Har bir bosqichda erishiladigan natijalarni asosini tashkil etuvchi (topshiriq, amaliy ko`rsatib berish) mashq va asarlar;

Darsning qaysi qismi, uning turi (ma`ruza, amaliy, seminar, musiqa darslarida esa qo`shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi)da qo`llanishidan qat`iy nazar o`quvchilarni psixologik, fiziologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari (ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlari, yosh xususiyatlari) hisobga olinishi lozim. [1].

Xulosa qilib aytganda, musiqa fanlarini o'qitishning hozirgi bosqichida innovatsion texnologiyalar va multimedia manbalaridan foydalanish muhim va bu o'quvchilarning dunyoqarashini ham musiqa olamida bo'layotgan yangiliklar haqida xabardor qilinishida samarali deb o'ylaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiyev M,Tolipov O', E. Seythalilova. "Pedagogik texnologiyalar" Tosh. 2008-yil.

2.U.Mirzaaxmedov. Musiqa darslarida innovatsion yondashuv.Ma'rifat gazetasi. 2019 yil.2/1

3. Mansurov Avaz Maqsudovish Toshkent 2016 Musiqa san'ati fanlarida zamonaviy axborot texnologiyalari.

4. N.J.Isakulova, Innovasion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent 2016

5. Yo'ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, Fan, 2001 - yil.